

O‘ZBEKISTONDA MADANIY ME’ROSNI SAQLASHGA QARATILGAN E’TIBOR VA TASHKILIY ISHLAR

Mardonov A. M.

Buxoro Davlat Universiteti

4-bosqich talabasi

Azizmardonov0608@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasining boy va rang-barang madaniy merosini saqlash, tiklash va targ‘ib qilish borasidagi davlat siyosati hamda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarni tahlil qiladi. Unda Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlar misolida arxitektura yodgorliklarining ahamiyati yoritilgan, shuningdek, moddiy bo‘lmagan merosni (an‘analar, hunarlar) saqlashdagi zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.*

Maqolada madaniy merosni himoya qilish bo‘yicha qabul qilingan qonunchilik bazasi, restavratsiya jarayonlarida qo‘llanilayotgan texnologiyalar (shu jumladan, raqamlashtirish) va kadrlar tayyorlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, moliyalashtirish, iqlim ta’siri kabi mavjud muammolar ko‘rsatilib, kelajakda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Аннотация. *В данной статье анализируется государственная политика и масштабная работа по сохранению, реставрации и популяризации богатого и разнообразного культурного наследия Республики Узбекистан. Подчеркивается важность архитектурных памятников на примере таких исторических городов, как Самарканд, Бухара и Хива, а также рассматриваются современные подходы к сохранению нематериального наследия (традиций, ремесел). В статье обсуждается принятая законодательная база по охране культурного наследия, технологии, используемые в процессах реставрации (включая оцифровку), и подготовка кадров. Также освещаются существующие проблемы, такие как финансирование и изменение климата, и определяются приоритетные задачи, которые необходимо решить в будущем.*

Abstract. *This article analyzes the state policy and the large-scale work being carried out to preserve, restore and promote the rich and diverse cultural heritage of the Republic of Uzbekistan. It highlights the importance of architectural monuments on the example of such historical cities as Samarkand, Bukhara and Khiva, and also considers modern approaches to preserving intangible heritage (traditions, crafts). The article discusses the legislative framework adopted for the protection of cultural heritage, technologies used in restoration processes (including digitization), and personnel training. It also highlights existing problems such as financing and climate change, and identifies priority tasks that need to be implemented in the future.*

Kalit so‘zlar: *Madaniy meros, restavratsiya, Jahon merosi, yodgorliklar, raqamlashtirish, moddiy bo‘lmagan meros, an‘analar, O‘zbekiston.*

Ключевые слова: *Культурное наследие, реставрация, всемирное наследие, памятники, цифровизация, нематериальное наследие, традиции, Узбекистан.*

Keywords: *Cultural heritage, restoration, World Heritage, monuments, digitization, intangible heritage, traditions, Uzbekistan.*

KIRISH

O‘zbekiston hududi ming yillar davomida buyuk sivilizatsiyalar, dinlar va madaniyatlarning chorrahasida joylashgan. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab yuzaga kelgan bu zamin boy tarixiy merosga ega bo‘lib, uning har bir shahri, har bir yodgorligi o‘tmishning hikoyasini so‘zlaydi. Bugungi kunda ushbu bebaho madaniy merosni saqlash va uni kelgusi avlodlarga yetkazish milliy g‘urur va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonning madaniy merosi nafaqat arxitektura obyektlari bilan, balki uning yozma manbalari, xalq og‘zaki ijodi, amaliy san‘ati va an‘analari bilan ham boydir. Xususan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ular Islom olamining durdonalari hisoblanadi. Arxitektura: Shohi Zinda ansambli, Registon maydoni, Kalon minorasi kabi inshootlar o‘rta asrlar me‘morchiligining cho‘qqisi sanaladi. Yozma Manbalar: Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi allomalarning asarlari jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Ularning qo‘lyozmalarini saqlash alohida ahamiyatga ega. Xalq San‘ati: O‘zbekistonning kashtachiligi, naqqoshligi, kulolchiligi va duradgorligi o‘zining rang-barangligi va nozik ishlov ber⁴⁶ilishi bilan dunyoga mashhur.

O‘zbekistonda ma‘daniy me‘roslarning hozirgi holati: O‘zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik an‘analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan O‘zbekiston hududida ko‘plab me‘moriy yodgorliklar, qadimiy qal‘a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo‘lib ularning aksariyati hozirda YuNESKOning Butunjahon merosi ob‘ektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda. Bugungi kunda YuNESKOning Butunjahon merosi ob‘ektlari Reprezentativ ro‘yxatiga 4 ta me‘moriy majmua - Xivadagi Ichan qal‘a muzey-qo‘riqxonasi (1990), Buxoroning tarixiy markazi (1993), Samarqandning tarixiy markazi “Samarqand - madaniyatlar chorrahasi” (2001), Shahrisabzning tarixiy markazi, shuningdek Ugam-Chotqol milliy bog‘i (2016) va 9 nomoddiy meros ob‘ektlari kiradi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon mamlakatda nafaqat yodgorliklarni tiklash ishlari orqali madaniy merosni saqlashga, balki milliy o‘ziga xoslikni mustahkamlashga va jahon madaniyatida tan olinishga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Ming yillar mobaynida, minoralar va qadimiy gumbazlar ko‘plab shaharlarning tashrif qog‘ozi, shahar manzaralari, ularning diniy va ma‘rifiy muassasalari - masjid va madrasalarining go‘zal aksiga aylandi. Mustaqil O‘zbekisto⁴⁷nda, qadimiy me‘morlarning ushbu noyob asarlari, bebaho madaniy meros ob‘ektlari sifatida maxsus maqomga ega bo‘ldi va ular davlatning alohida muhofazasi ostida.

⁴⁶ <https://uzbekistan.travel/uz/madaniy-meros/>

O‘zbekistonning YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan madaniy ⁴⁸meros ob‘ektlari ro‘yxati (hozirda 7 ta ob‘ekt mavjud):

Tartib raqami	Meros ob‘ekti nomi	Kiritilgan yili	Meros turi
1	Xiva (Ichon-Qal’a)	1990	Madaniy
2	Buxoro shahri tarixiy markazi	1993	Madaniy
3	Samarqand – Madaniyatlar chorrahasi	2001	Madaniy
4	G‘ijduvon kulolchilik maktabi	2014	Nomoddiy (Insoniyat nomoddiy madaniy merosining ro‘yxatiga kiritilgan)
5	Shashmaqom (O‘zbekiston va Tojikiston bilan birgalikda)	2003	Nomoddiy
6	Boysun (Bahoriy marosimlar madaniyati)	2001	Nomoddiy
7	Navro‘z (Bir nechta davlat bilan birgalikda)	2009	Nomoddiy

Madaniy me’roslarni saqlashga to’sqinlik qiluvchi omillar: O’tgan asrning 60-80-yillarida yurtimizdagi ko‘pgina yodgorliklar qisman yoki to‘liq buzilgan bo‘lib, bu holat ko‘plab arxeologik yodgorliklarni paxta ekin maydonlarini kengaytirish, tepalik tuprog‘ini ekinzorlarga o‘g‘it sifatida solinishi natijasida yuzaga kelgan. Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq madaniy merosimizni jumladan, arxeologik yodgorliklarni saqlash, himoya qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida bir qator qonunlar qabul qilingan. Jumladan, yodgorliklarni saqlash yurtimizning Konstitusiyasida ham belgilangan bo‘lib, bu borada 49 - moddada quyidagilar ta’kidlangan: “Fuqarolarlar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir”. Shu bilan birga 2009-yil 13-oktyabrda qabul qilingan “Arxeologik me’ros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun arxeologik yodgorlik va uni muhofaza qilish hamda undan foydalanishning huquqiy asoslarini qayd etdi. Yuqorida qayd qilinganidek, arxeologik yodgorliklar tarixning moddiy namunasi bo‘lib, uning qisman yoki to‘liq buzilishi tariximizning qaysidir qismini butunlay yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda arxeologik yodgorliklarni qisman yoki to‘liq buzilishi ikki omil – tabiiy tabiat jarayonlari va inson omillari bilan bog‘liq hisoblanadi.

O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosini saqlash borasida katta sa’y-harakatlar qilayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonga bir qator ichki va tashqi omillar to’sqinlik qiladi. Ushbu to’siqlar meros ob‘ektlarining butunligiga, saqlanib qolishiga va kelajak avlodlarga yetkazilishiga jiddiy xavf soladi. Ko‘plab qadimiy ob‘ektlar katta maydonni egallaydi va ularni saqlash, zamonaviy standartlarga moslashtirish yuqori xarajat talab qiladi. Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘lar barcha ehtiyojlarni qondirishga yetarli emas. An’anaviy Materiallar

⁴⁸ JADVAL MUALLIF TOMONIDAN YARATILGAN

va Texnologiyalar Tanqisligi: Qadimgi binolarni tiklash uchun talab etiladigan maxsus ohak, tabiiy ranglar va an’anaviy qurilish materiallari (masalan, maxsus sifatli g’isht) ishlab chiqarish yo’lga qo’yilmagan yoki qimmat. Bu holat restavratsiya jarayonida zamonaviy, ammo merosga mos kelmaydigan materiallardan foydalanishga majbur qiladi. Malakali Mutaxassislar Tanqisligi: Arxeologik qazish ishlarini olib borish, noyob qo’lyozmalarni saqlash va qadimiy me’morchilik uslublarini tiklash bo’yicha chuqur bilimga ega bo’lgan yuqori malakali restavratorlar va ilmiy xodimlarning yetishmasligi kuzatiladi. Iqlim O’zgarishi: O’rta Osiyodagi keskin iqlim o’zgarishlari (qattiq qurg’oqchilik, kuchli yomg’irlar, haroratning keskin farqlanishi) loy va g’ishtdan qurilgan inshootlarning yemirilishini tezlashtiradi. Noto’g’ri Shaharlashtirish va Qayta Qurish: Meros ob’ektlari joylashgan zonalar (xususan, Buxoro va Xiva) yaqinida noqonuniy yoki e’tiborsiz qurilish ishlari olib borilishi natijasida ob’ektlarning vizual muhiti buziladi va ularning seysmik mustahkamligiga putur yetkaziladi. Madaniy Meros Ob’ektlarining Yomon Maqsadlarda Iste’mol Qilinishi: Ba’zi ob’ektlarda (ayniqsa, xalq xususiy mulkiga aylantirilgan joylarda) restavratsiya talablariga rioya qilmasdan, ulardan tijoriy maqsadlarda foydalanish (masalan, qadimgi binolarda zamonaviy uylar qurish) merosning asl qiymatini yo’qotadi.

Madaniy me’roslarni saqlab qolish uchun amalga oshirilayotgan ishlar: Bugungi kunda mamlakatimizning moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlar salmog’i katta. Ayni paytda YUNESKO Umumjahon madaniy merosi ro’yxatiga O’zbekistondagi 4 ta me moriy majmua – Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari kiritilgan. Xalqaro tashkilot YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro’yxatiga esa, mamlakatimiz nomoddiy madaniy merosining 8 ta obyekti (Boysun madaniy makoni, Shashmaqom mumtoz musiqasi, Katta ashula, Askiya san ati, Navro’z, Palov madaniyati va an’analari, Marg’ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi: adras va atlas tikish, Xorazm raqsi – Lazgi) kiritilgan. Mamlakatimizning YUNESKOga a zo ’ bo lgan 1993-yildan boshlab sohaga oid barcha asosiy xalqaro hujjatlariga qo shilish choralari ko’rdi, ularning normalari milliy qonunchilikka implementasiya qilinmoqda. Keyingi paytlarda O’zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish yo’lidagi dolzarb muammolarni ko rib chiqish, xalqaro tajribani o’rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu yo’nalishdagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo’nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda. Aytish mumkinki, Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to g risida” qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Qarorning 10-bandiga asosan YUNESKOning Umumjahon merosi ro’yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko’ra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanishi belgilandi. Ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining

loyihalari Madaniy meros departamenti hamda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirishiga oid tartib o‘rnatildi. Takidlash joizki, rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish yo‘lga qo‘yildi. Masalan, 2020-yilda YUNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish uchun 11 ta loyiha Umumjahon merosi markaziga yuborilgan. 2020-yil sentyabr oyida Buxoro tarixiy markazida rejalashtirilgan obyektning loyihasi yuzasidan Umumjahon merosi markazining ijobiy xulosasi olindi. “Moddiy madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan Jinoyat kodeksi hamda “Ma‘muriy javobgarlik” to‘g‘risidagi kodeksiga Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlarga taalluqli javobgarlik belgilandi. Umuman olganda, o‘zining tarixiy-madaniy qimmatiga ko‘ra Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlarda va ularning qo‘riqlanadigan chegar alarida moddiy madaniy meros obyektlari hisoblanmagan binolar, inshootlar hamda boshqa obyektlarni belgilangan tartibda ruxsatnoma olmasdan qurish yoki buzishga oid respublika bo‘yicha 2020-yilning o‘tgan davrida 39 ta ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzildi va ko‘rib chiqish uchun sudlarga yuborildi. YUNESKO Umumjahon qo‘mitasining milliy qonunchilikni takomillashtirish borasidagi tavsiyalarini bajarish bilan bir qatorda Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlarni xalqaro mezonlar bo‘yicha boshqarish rejalari va hisobotlari tayyorlanmoqda.

2. O‘zbekistonda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning yangi bosqichga ko‘tarilishi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuniga binoan respublikamiz hududida 2006 - yilning 1 - yanvar holatida davlat hisobida 7734 nomlanishdagi madaniy meros obyektlari (madaniyat va yodgorliklari bo‘lib 1526 ta obyekt respublika ahamiyatiga, 6208 nomlanishdagi obyekt mahalliy) ahamiyatidagi madaniy meros obyektlaridir. Respublika ahamiyatiga molik davlat muhofazasidagi olingan madaniy meros obyektlari quyidagilardan iboratdir: 776 ta arxeologiya yodgorliklari; 579 ta arxitektura yodgorliklari; 19 ta me‘morchilik va tarix yodgorliklari; 152 ta monumental san‘at va haykaltaroshlik asarlari; Mahalliy ahamiyatga molik muhofazasiga olingan madaniy meros obyektlari quyidagilardan iboratdir: 171 ta me‘morchilik va tarix yodgorliklari; 876 ta monumental san‘at va haykaltaroshlik asarlari; 3371 ta arxeologiya yodgorliklari; 1790 ta arxitektura yodgorliklari. Arxeologik yodgorliklar tariximizning qadimgi va eng qadimgi davri haqida ma‘lumot beruvchi deyarli asosiy manba hisoblanadi. Zero, hozirgi vaqtda yurtimizdagi Madaniyat vazirligi tarkibidagi aksariyat tarix va o‘lkashunoslikka ixtisoslashtirilgan muzeylarning eksponatlarini asosiy qismini aynan arxeologik yodgorliklarda aniqlangan osori atiqalar tashkil etishi fikrimiz dalilidir.⁴⁹

Xulosa

O‘zbekiston madaniy me‘rosni saqlash masalasiga faol va strategik yondashuvni namoyon etmoqda. Bu yo‘nalishdagi har qanday yutuq nafaqat tarixni saqlash, balki

⁴⁹ <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/moddiy-madaniy-arxeologik-meros-obyektlarini-muhofaza-qilish-va-turizm-fanining-mohiyati>

mamlakatning madaniy diplomatiyasi va iqtisodiy rivojlanishi uchun ham zamin yaratadi. Merosni saqlash – bu bir martalik tadbir emas, balki doimiy, mas’uliyatli va avlodlararo davom etadigan ulkan mehnatdir. O‘zbekiston bu mehnatni izchil davom ettirish orqali o‘zining buyuk o‘tmishiga sadoqatini va yorqin kelajakka intilishini namoyish etadi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston bugungi kunda madaniy merosni saqlashni shunchaki majburiyat emas, balki global miqyosda o‘zining tarixiy joyini mustahkamlashga qaratilgan strategik yo‘l sifatida qaraydi. Ushbu yo‘lda muvaffaqiyatga erishish uchun ilmiy mutaxassislikni, moliyaviy barqarorlikni va jamoatchilik faolligini oshirish zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-25461>
2. <https://uzbekistan.travel/uz/madaniy-meros/>
3. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/moddiy-madaniy-arxeologik-meros-obyektlarini-muhofaza-qilish-va-turizm-fanining-mohiyati>
4. Akramova K.A. Cultural Heritage Presentation Is vital for Maintaining societal Identify and Promoting Cross-Cultural Understanding. 2024-06-08. Vol. №6 (2024) : Diversity Research
5. V.O.Ekwelem, V.N.Okafor, S.C.Ukwoma Presentation of Cultural Heritage: The Strategic Role Science Professionals in South East Nigeria Library Philosophy and Practice 2011. ISSN 1522-0222
6. Usmaedi, Muhammad Amin Lansiw, Amung.B.Studyanto, Iman Ahmad.G Cultural Heritage Presentation through community engagement a new Pardigm for social sustainability July 2024-Indonesian Journal of Studies on Humanities Social Sciences and Education 1(2):50-59
7. Edwin Kairie Cultural Heritage Presentation in the Face of Globalization July 2024-International Journal of Humanity and Social Sciences 3(3):1-14
8. Nicholas Skiellis Cultural Presentation Hardbook 37-bet